
HURMATLI QO'SHTEPA TUMANI ELEKTR ENERGIYASI ISTE'MOLCHILARI!

Ma'lumki, mamlakatimizda epidemiologik vaziyat keskinlashgani sababli Respublika maxsus komissiyasi qarori bo'yicha karantin choralari 15 avgust kunigacha uzaytirildi.

Albatta, belgilangan 10 kun mobaynida kommunal xizmatlarga, xususan, qarzdorlik yig'ilib qolmasligi uchun foydalanilgan elektr energiyasiga to'lovlarni amalga oshirish ehtiyoji bo'ladi.

“Farg’ona Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qo’shtepa tumani elektr ta'minoti korxonasi o'zingiz va yaqinlaringizning sog'lig'iga befarq bo'lmagan holda, foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lovlarni tuman elektr ta'minoti korxonasiga tashrif buyurmasdan mamlakatimizda mavjud barcha to'lov tizimlari (U-Pay, Click, Payme, Paynet) hamda banklarning mobil ilovalari orqali uydan chiqmasdan turib amalga oshirishlari mumkinligini yana bir bor eslatib o'tadi.

“Farg’ona Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Qo’shtepa tumani elektr ta'minoti korxonasi.

2020-08-05 17:17:48